Annotatsiya. Zamonaviy avtomobil sanoati global raqobat, texnologik innovatsiyalar, energiya resurslarining diversifikatsiyasi va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Ushbu maqolada dunyodagi yetakchi yengil avtomobil ishlab chiqaruvchilari – Toyota Motor Corporation, Tesla Inc. va BYD Auto misolida xalqaro avtomobil korxonalarining tashkiliy rivojlanishining zamonaviy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ishlab chiqarishning gibrid modellari, vertikal integratsiya, global qiymat zanjiri boshqaruvi, innovasion menejment yondashuvlari va ekologik barqarorlik strategiyalarining korxona raqobatbardoshligiga ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: avtomobil sanoati, Toyota, Tesla, BYD, global raqobat, texnologik innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, Blade Battery, elektromobil (EV), gibrid.

Abstract. The modern automotive industry is expanding rapidly under the influence of global competition, technological innovation, energy-source diversification, and digital transformation. This article examines the contemporary organizational development characteristics of leading global passenger vehicle manufacturers – Toyota Motor Corporation, Tesla Inc., and BYD Auto. The study highlights hybrid production models, vertical integration, global value chain management, innovative managerial approaches, and environmental sustainability strategies that enhance corporate competitiveness.

Key words: automotive industry, Toyota, Tesla, BYD, global competition, technological innovation, digital transformation, Blade Battery, electric vehicle (EV), hybrid.

Аннотация. Современная автомобильная промышленность развивается ускоренными темпами под воздействием глобальной конкуренции, технологических инноваций, диверсификации источников энергии и процессов цифровой трансформации. В данной статье анализируются современные особенности организационного развития ведущих мировых производителей легковых автомобилей – Toyota Motor Corporation, Tesla Inc. и BYD Auto. В исследовании раскрыты гибридные модели производства, вертикальная интеграция, управление глобальными цепочками стоимости, инновационные управленческие подходы и стратегии экологической устойчивости, влияющие на конкурентоспособность компаний.

Ключевые слова: автомобильная промышленность, Toyota, Tesla, BYD, глобальная конкуренция, технологические инновации, цифровая трансформация, Blade Battery, электромобиль (EV), гибриды.

KIRISH

XXI asrda avtomobil sanoati nafaqat transport vositalarini ishlab chiqaruvchi, balki innovasion texnologiyalar, sun'iy intellekt, akkumulyator batareyalari, mahalliyashtirish, logistika va marketing kabi sohalarni birlashtirgan murakkab ekotizimga aylandi.

Xalqaro kompaniyalarning rivojlanish jarayonida quyidagi tendensiyalar asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda:



- elektromobil texnologiyalarining ommalashishi;
- vertikal integratsiya va avtomatlashtirish;
- global ishlab chiqarish tarmoqlarining shakllanishi;
- ESG va barqaror rivojlanish tamoyillari;
- raqamlashuv va “aqlli zavod/Smart factory” texnologiyalari.

Ushbu maqolada Toyota, Tesla va BYD misolida mazkur xususiyatlar tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Atajanov Azizbek Abdimalikovich (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining bosh yuristkonsulti) tomonidan yozilgan “Raqamli transformatsiya sharoitida operasion menejmentni modernizatsiya qilish strategiyalari” maqolasida raqamli transformatsiya davrida tashkilotlarda operasion menejment tizimini modernizatsiya qilishning strategik yo'nalishlari tahlil qilingan. Mazkur ilmiy ishda zamonaviy texnologiyalar, yangi sharoitlar va boshqaruv amaliyotlari orqali menejment tizimini takomillashtirishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritib berilgan.

Boshqa so'z bilan aytganda, tadqiqot raqamlashuv jarayonida – sun'iy intellekt, IoT, katta ma'lumotlar, avtomatlashtirilgan jarayonlar kabi texnologiyalar jadal kirib kelayotgan sharoitda – menejment faoliyatini yangi muhitga moslashtirish va uning samaradorligini oshirish uchun qanday strategik o'zgarishlar zarurligini o'rganadi.

Maqolada quyidagi uchta asosiy yo'nalishga alohida e'tibor qaratilgan:

1. Menejment paradigmalari (agile, lean, dizayn fikrlash)ning raqamli muhitga moslashuvi;
2. Inson resurslari va raqamli kompetensiyalar, shuningdek, tashkiliy madaniyatning transformatsiya jarayonidagi hal qiluvchi o'rni;
3. Tajriba natijalari, ya'ni raqamli transformatsiyaga tayyor tashkilotlarda operasion menejmentni modernizatsiya qilish evaziga samaradorlik, jarayonlar tartibi, boshqaruv tuzilmalari va biznes-jarayonlar sezilarli darajada yaxshilanishi mumkinligi.

Muallif ta'kidlaydiki, texnologik yangilanishning o'zi yetarli emas; samarali modernizatsiya uchun rahbarlik (leadership) yondashuvlari, tashkiliy madaniyat va xizmat ko'rsatuvchi biznes-jarayonlarning qayta ko'rib chiqilishi ham zarur.

Maqola raqamli transformatsiya sharoitida menejment tizimini modernizatsiya qilish – bu faqat yangi texnologiyalarni joriy etish emas, balki boshqaruv madaniyati, tashkiliy jarayonlar va inson omillarini o'z ichiga olgan kompleks jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Agar tashkilot bu jarayonlarni aniq strategik yo'nalish asosida olib bormasa, raqamli transformatsiyadan kutilgan natijalarga erishish qiyin bo'ladi.

Shuningdek, <https://cyberleninka.ru/> saytida 2024-yil 1-noyabrda chop etilgan K.V. Drokina (iqtisod fanlari nomzodi, dotsent)ning “Xalqaro kompaniyalarning rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari zamonaviy sharoitlarda” (“Features and Trends of International Companies Development in Modern Conditions”) nomli ilmiy maqolasi ham o'rganib chiqildi. Ushbu maqolada zamonaviy global iqtisodiy sharoitda xalqaro kompaniyalar faoliyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, rivojlanish tendensiyalari hamda raqamli transformatsiya, transchegaraviy hamkorlik va barqaror rivojlanish kabi strategik yo'nalishlar keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- Taqqoslash metodi. Dunyoning turli mintaqalarida faoliyat yurituvchi uchta yirik avtomobil/avtotransport vositalari ishlab chiqaruvchi kompaniyaning zamonaviy tashkiliy tuzilmasi (struktura, globalizatsiya, lokalizatsiya, diversifikatsiya va raqamlashuv) taqqoslash metodi asosida o'rganib chiqildi.
- Statistik tahlil. Toyota, Tesla va BYD avtomobil ishlab chiqaruvchilarining ishlab chiqarish modellari, global tarmoqlari, ESG strategiyalari va innovatsion rivojlanish darajalari statistik ko'rsatkichlar asosida jadval shaklida qiyosiy tahlil qilindi.
- SWOT tahlili. Tanlab olingan avtomobil ishlab chiqaruvchilarning kuchli va kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari hamda xavf-xatarlari SWOT tahlil metodi yordamida aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tashkiliy modelning asosiy xususiyatlari. Toyota dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Uning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- Lean manufacturing (“Toyota Production System”) – ishlab chiqarishda ortiqcha harakatlar, sarf-xarajatlar, vaqt va resurslarni minimal darajaga tushirishga qaratilgan boshqaruv tizimi;



- Just-in-time logistika modeli;
- Kaizen falsafasi – barcha xodimlar ishtirokida amalga oshiriladigan “uzluksiz takomillashtirish” yondashuvi;
- Global ishlab chiqarish tarmoqlari – kompaniya 27 ta mamlakatda zavodlarga ega.

Innovatsiya va diversifikatsiya. Toyota gibrid texnologiyalarining dunyodagi yetakchisidir. 1997-yilda ishlab chiqarilgan Prius modeli global gibrid avtomobillar sanoatining shakllanishida fundamental ahamiyat kasb etgan.

ESG va ekologik strategiya. Kompaniya 2050-yilgacha “Zero Emission” maqsadiga erishishni strategik yo‘nalish sifatida belgilagan.

2. Tesla Inc.: to‘liq vertikal integratsiya va raqamli transformatsiya yetakchisi

Tashkiliy modelning asosiy xususiyatlari. Tesla avtomobil sanoatidagi eng radikal innovatsion kompaniyalardan biri bo‘lib, uning rivojlanish modeli quyidagilarga asoslanadi:

- To‘liq vertikal integratsiya – dasturiy ta‘minotdan tortib akkumulyatorgacha bo‘lgan barcha komponentlar ichki ishlab chiqariladi;

- Gigafactory konsepsiyasi – Elon Musk tomonidan “dunyodagi eng samarali zavod modeli” sifatida ta‘riflangan ishlab chiqarish yondashuvi;

- Avtopilot va avtonom boshqaruv tizimlari.

Innovatsiya va diversifikatsiya.

- OTA (Over-the-Air) – avtomobillarning dasturiy ta‘minotini onlayn yangilash;

- Uzoq masofani bosib o‘tishga mo‘ljallangan yuqori sig‘imli akkumulyatorlar;

- Elektromobil narxini kamaytirishga qaratilgan samaradorlik;

- Raqamlashuv, sun‘iy intellekt va ma‘lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimlari.

ESG va ekologik strategiya. Tesla 2050-yilgacha Zero Emission tamoyiliga amal qiladi. Kompaniyaning asosiy missiyasi: “Dunyoning barqaror energiyaga o‘tish jarayonini tezlashtirish” (Accelerate the world’s transition to sustainable energy).

3. BYD Auto: yangi energiya vositalari (NEV) va Blade Battery texnologiyasiga asoslangan rivojlanish modeli

Tashkiliy modelning asosiy xususiyatlari. BYD dunyodagi eng yirik elektromobil ishlab chiqaruvchilardan biridir. Uning zamonaviy rivojlanish xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Elektromobil texnologiyalari bo‘yicha Tesla bilan kuchli raqobat;
- Blade Battery – xavfsizligi yuqori, uzoq xizmat qiluvchi innovatsion akkumulyatorlar;
- Har bir asosiy komponentni ichki ishlab chiqarishga asoslangan vertikal integratsiya;
- Haydovchiga yordam beruvchi avtonom tizimlar;
- Yangi energiya avtobuslari, elektromobillar, gibrid modellarning keng turlari;
- Global ekspansiya va lokalizatsiya siyosati.

BYD hozirda dunyoning 70 dan ortiq mamlakatiga eksport qiladi. Shuningdek:

- Vengriya, Tayland, Braziliya, Indoneziyada zavodlar faoliyat yuritadi;
- O‘zbekistonda 2024-yil iyul oyida “BYD Uzbekistan Factory” MCHJ QK korxonasi ishga tushirilgan.

Kompaniya “Zero Emission Mobility” siyosatini amalga oshiradi. Barqaror energiya manbalariga o‘tish BYDning asosiy strategik tamoyillaridan biridir.

1-jadval. Solishtirma taxlil

Toifa	Toyota	Tesla	BYD
Ishlab chiqarish modeli	Lean, JIT	Gigafactory	Vertikal integratsiya
Asosiy yo‘nalish	Gibrid	Elektro	Elektro + gibrid
Innovatsiya	Kayden	Avtopilot, AI	Blade battery
Globalizatsiya	27 mamlakatda zavod	AQSH markazli, 5 zavod	70 mamlakat, tez ekspansiya
ESG	2050 strategiyasi	Zero emission	Green Mobility

Zamonaviy avtomobil sanoati global texnologik o‘zgarishlarning markazida turadi. Toyota, Tesla va BYD Auto misolida quyidagi zamonaviy xususiyatlar yaqqol namoyon bo‘ladi:

- Elektromobil va gibrid texnologiyalar avtomobil sanoatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.
- Vertikal integratsiya – tannarxni pasaytirish va tezkor rivojlanishni ta‘minlovchi asosiy omillardan biridir.
- ESG standartlari va ekologik barqarorlik xalqaro kompaniyalar strategiyasida muhim o‘rin egallamoqda.
- Global ishlab chiqarish tarmoqlari hamda lokallashuv siyosatlari avtomobil sanoatining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.



• BYD Auto yangi energiya vositalari (NEV) sohasidagi innovatsiyalari tufayli XXI asrning eng tez rivojlanayotgan avtomobil ishlab chiqaruvchisiga aylandi.


Zamonaviy avtomobil sanoatidagi raqobat endilikda faqat mahsulot sifati bilan emas, balki texnologik yangiliklar, ekologik barqarorlik, raqamli boshqaruv va global strategik yondashuvlar bilan belgilanmoqda.

Quyidagi jadvalda International Energy Agency (IEA) tomonidan 2020-2025-yillarda BYD, Tesla va Toyota kompaniyalarining bozor ulushi bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar keltiriladi.

2-jadval. 2020-2025-yillarda BYD, Tesla va Toyota kompaniyalarining global elektromobil bozori ulushi (IEA ma'lumotlari asosida)

T/r	Year/Yil	BYD (%)	Tesla (%)	Toyota (%)	Qolganlar ulushi
1	2020	1,0	20,0	0,5	78,5
2	2021	3,0	16,0	0,6	80,4
3	2022	6,0	18,0	0,8	75,2
4	2023	11,0	22,0	1,0	66,0
5	2024	18,0	19,0	1,2	61,8
6	2025	20,0	15,0	1,5	63,5

Quyidagi grafikda BYD, Tesla hamda Toyota korxonalarining 2020-2025-yillardagi jaxon bozorda egallagan ulushini grafik usulida ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Qisqa solishtirma jadval. SWOT tahlil

3-jadval. Toyota, Tesla va BYD kompaniyalarining SWOT tahlili (kuchli tomonlar, kamchiliklar, imkoniyatlar va xavflar taqqoslanishi)

Kompaniya	Kuchli tomoni	Kamchiligi	Imkoniyat	Xavf
Toyota	Sifat, gibrid yetakchisi, global tarmoq	EVda ortda	Vodorod, rivojlanayotgan bozorlar	EV raqobati, qonunlar
Tesla	Innovatsiya, avtopilot, brend	Sifat muammolari, qimmat	Robotaxi, energiya	Xitoy xavflari, raqobat
BYD	Arzon EV, batareyalar, ekspansiya	Brend imidji past	Eksport, byudjet segment	Antidamping, geosiyosiy xavf

Zamonaviy avtomobil sanoatida kechayotgan o'zgarishlar Toyota, Tesla va BYD kabi yirik xalqaro kompaniyalarning tashkiliy rivojlanish modellarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kompaniyalar global texnologik transformatsiya ta'sirida umumiy tendensiyalarga tayanayotgan bo'lsada, ularning har biri turlicha tashkiliy strategiya va rivojlanish yo'lini tanlamoqda. Mazkur farqlar bir tomondan raqobat ustunliklarini shakllantirsa, ikkinchi tomondan kompaniyalarning kelgusi 10-20 yildagi rivojlanish trayektoriyasini belgilovchi strategik omillarga aylanmoqda.



Avvalo, Toyota gibrid texnologiyalariga tayanadigan rivojlanish modeli bilan alohida e'tiborga sazovor. Kompaniyaning Lean va JIT kabi samaradorlikka qaratilgan tizimlari uning ishlab chiqarish madaniyatida ustuvor o'rin tutib, barqarorlik, sifat va ishonchlilik kabi muhim omillarni ta'minlab kelmoqda. Biroq global bozorda elektromobillarga talabning keskin oshishi Toyota uchun yangi strategik chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Tahlil natijalari kompaniyaning gibrid modellardan to'liq EV segmentiga o'tishda sustkashlik qilishi sababli Tesla va BYD kabi raqobatchilardan ma'lum darajada ortda qolayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Toyota tomonidan faol rivojlantirilayotgan vodorod texnologiyalari kelajakda unga uzoq muddatli ustunliklar berishi ehtimoldan xoli emas. Demak, kompaniyaning tashkiliy rivojlanishi an'anaviy gibrid yechimlar bilan innovasion vodorod texnologiyalari o'rtasida muvozanat topishga qaratilgan.

Tesla misolida esa to'liq vertikal integratsiya, raqamlashuv va sun'iy intellektga asoslangan ishlab chiqarish modeli sanoatda yangi standartlarni shakllantirmoqda. Kompaniyaning Gigafactory konsepsiyasi, OTA yangilanishlari, avtonom boshqaruv tizimlari va AI asosidagi yechimlari an'anaviy avtomobil ishlab chiqarish modellari tubdan o'zgartirmoqda. Bunday yondashuv Teslani raqobatbardoshligini oshirayotgan bo'lsa-da, kompaniya ayrim xavf-xatarlardan xoli emas. Jumladan, Ilon Mask shaxsiga haddan tashqari bog'liqlik, FSD tizimiga oid regulyator cheklovlar, Xitoy bozorida siyosiy noaniqliklar va batareya xomashyosi narxlarining beqarorligi Tesla kelajagiga ta'sir etuvchi muhim omillar hisoblanadi. Shu bois, Tesla innovatsiyaning yetakchisi bo'lishi bilan birga, tashkiliy rivojlanish modeli yuqori dinamikaga ega va turli xavf-xatarlarga ochiq ekani tadqiqotda aniq ko'rindi.

BYD Auto esa hozirgi kunda global EV bozorining eng tez o'sayotgan ishtirokchisi sifatida maydonga chiqmoqda. Kompaniyaning Blade Battery kabi texnologik yutuqlari, arzon segmentga mo'ljallangan modellar va vertikal integratsiyaga asoslangan ishlab chiqarish tizimi BYDni qisqa muddatda Tesla bilan tenglashtirdi hamda ayrim yo'nalishlarda undan ustun holatga olib chiqdi. BYDning strategiyasida eksport, lokallashuv va global ekspansiya muhim o'rin egallaydi. Vengriya, Tayland, Braziliya va O'zbekistonda zavodlar ochilishi kompaniyaning mintaqaviy bozorlardagi mavqeini mustahkamlayotganini tasdiqlaydi. Biroq Yevropadagi past brend imidji, antidamping siyosati va geosiyosiy omillar BYDning global kengayishiga cheklovlar kiritishi mumkin. Demak, kompaniya tezkor transformatsiya va agressiv innovasion modelga tayanib rivojlanmoqda.

Ta'kidlash lozimki, uch kompaniyaning tashkiliy rivojlanish modellari o'rtasidagi farqlar butun avtomobil sanoatining strategik yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatmoqda. Tesla va BYDda vertikal integratsiya raqobat ustunligi yaratgan bo'lsa, Toyota an'anaviy global yetkazib berish zanjirlaridan foydalanishda davom etmoqda. Innovatsiya tezligi Tesla va BYDda yuqori bo'lib, Toyota esa ehtiyotkor, bosqichma-bosqich yondashuvni afzal ko'radi. ESG va barqaror rivojlanish strategiyalari barcha kompaniyalarda mavjud bo'lsada, ularning amaliyotga joriy etilish darajasi o'zaro farq qiladi.

Umuman olganda, tahlil natijalari zamonaviy avtomobil sanoatida yagona tashkiliy rivojlanish modeli mavjud emasligini ko'rsatadi. Har bir kompaniya o'zining tarixiy tajribasi, korporativ madaniyati, bozor strategiyasi va innovasion imkoniyatlariga asoslanib rivojlanmoqda. Toyota – barqarorlik va ishonchlilikka, Tesla – inqilobiy innovatsiya va to'liq raqamlashuvga, BYD esa – tez ekspansiya va arzon, ammo samarali texnologik yechimlarga tayanadi. Shu sababli, har bir modelning o'ziga xos ustunliklari mavjud bo'lib, ularning barchasi avtomobil sanoati ekotizimida muhim o'rin egallaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot kelajakdagi asosiy yo'nalishlarni ham aniqlab beradi: elektromobillar, avtonom boshqaruv tizimlari, energiya saqlash texnologiyalari, ESG standartlariga moslashuv va global lokallashuv kelasi o'n yillikda sohaning ustuvor rivojlanish yo'nalishlari bo'lib qoladi. Demak, kompaniyalar innovasion yechimlar, tashkiliy samaradorlik va strategik transformatsiya o'rtasida muvozanatni topgan taqdirdagina global raqobatda ustunlikni saqlab qolishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganilgan tadqiqot natijalari zamonaviy avtomobil sanoati jahon iqtisodiyotida eng tez rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega tarmoqlardan biriga aylanganini yaqqol ko'rsatdi. Toyota, Tesla va BYD kabi yirik xalqaro kompaniyalarning tashkiliy rivojlanish tajribasi shundan dalolat beradiki, sanoatning kelajagini belgilovchi asosiy omillar – innovatsiya, raqamli transformatsiya, vertikal integratsiya, ESG standartlari va global lokallashuv jarayonlaridir. Tahlil shuni ko'rsatadiki, har bir kompaniya ushbu omillarga o'zining korporativ madaniyati, strategik maqsadlari va texnologik salohiyatidan kelib chiqib turlicha yondashmoqda.

Toyota barqaror ishlab chiqarish madaniyati, Lean va Just-in-time tizimlari, kaydzen falsafasi va gibrid texnologiyalarni rivojlantirish orqali global raqobatda o'z mavqeini saqlab kelmoqda. Biroq elektromobillar segmentida sekin rivojlanish kompaniya oldida yangi strategik vazifalarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, Toyotaning vodorod texnologiyalariga yo'naltirilgan innovasion izlanishlari kelajakda kompaniyaning uzoq muddatli ustunligiga aylanishi mumkin.



Tesla esa global avtomobil sanoatida inqilobiy innovatsiya modeli bilan ajralib turadi. Vertikal integratsiya, Gigafactory konsepsiyasi, avtonom boshqaruv tizimlari va OTA yangilanishlari kompaniyani raqobatda yetakchi mavqega ko'tardi. Biroq keskin innovatsion rivojlanish bilan birga strategik xavf-xatarlar ham kuchaymoqda: geosiyosiy omillar, FSD texnologiyalariga oid regulyator bosimlari va kompaniya faoliyatining Ilon Mask shaxsiga yuqori darajada bog'liqligi. Shunga qaramay, Tesla sanoatda raqamlashuv, sun'iy intellekt va avtonom transport vositalari rivojlanishining asosiy drayveri bo'lib qolmoqda.

BYD Auto qisqa vaqt ichida jahon EV bozorining yetakchilari qatoriga kirib, "yangi avlod ishlab chiqaruvchisi" sifatida shakllandi. Blade Battery texnologiyasi, arzon va samarali modellar, yuqori darajadagi vertikal integratsiya va jadal global ekspansiya BYDning tez o'sishiga xizmat qildi. Kompaniyaning O'zbekiston, Vengriya, Tayland va Braziliyadagi zavodlari uning lokallashuv strategiyasining faol amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Tahlildan kelib chiqadigan umumiy xulosa shundan iboratki, zamonaviy avtomobil sanoatida barcha kompaniyalar uchun yagona universal tashkiliy rivojlanish modeli mavjud emas. Har bir korporatsiya o'zining tarixiy rivoji, marketing strategiyasi, texnologik imkoniyatlari va global ambisiyalaridan kelib chiqib, turli yo'lni tanlamogda. Biroq ularni birlashtirib turuvchi umumiy tendensiyalar mavjud:

- elektromobil va gibrid texnologiyalarning ustuvor ahamiyat kasb etishi;
- ESG va "Zero emission" siyosatlarining strategik zarurati;
- raqamlashuv va avtonom transport vositalariga bosqichma-bosqich o'tish;
- global lokallashuv va vertikal integratsiya ehtiyojining ortib borishi.

Shu bois xalqaro kompaniyalarning tashkiliy rivojlanish jarayonida texnologik innovatsiyalar, strategik moslashuvchanlik va bozor talablariga tez javob qaytara olish muhim hisoblanadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, kelajakda kompaniyalar nafaqat yangi texnologiyalarni joriy etishi, balki korporativ madaniyat, biznes-jarayonlar va rahbarlik modellarini ham tubdan yangilashi zarur. Faqat shundagina ular global raqobatda barqaror mavqeni saqlab qolishga erisha oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Atajanov A.A. (2025). Raqamli transformatsiya sharoitida operasion menejmentni modernizatsiya qilish strategiyalari. Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi. 2025-yil 11-sentyabr. Manba: <https://zenodo.org/records/17099883>
2. Drokina K.V., & Chen Yu. (2024). Features and Trends of International Companies Development in Modern Conditions. Southern Federal University, Russia. 2024-yil 1-noyabrda chop etilgan. Manba: <https://cyberleninka.ru/article/n/features-and-trends-of-international-companies-development-in-modern-conditions/viewer>
3. Womack J.P., & Jones D.T. (2018). Березхливое производство: Как избавиться от потер и добиться просветания вашей компании. Москва: Alpina / 472 bet.
4. Kahneman D. (2021). Думай медленно... решай быстро. Москва: AST / 653 bet.
5. Нодзи С. (2023). Тоёта: Пут к совершенству. Москва: ЭКСМО / 288 bet.
6. Visual Capitalist. (2024). The World's Top EV Makers by Market Share. Manba: https://www.visualcapitalist.com/the-worlds-top-ev-makers-by-market-share/?utm_source=chatgpt.com
7. International Energy Agency (IEA). (2025). Trends in the Electric Car Industry. Manba: https://www.iea.org/reports/global-ev-outlook-2025/trends-in-the-electric-car-industry-3?utm_source=chatgpt.com



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>